



Sociopragmatic features of modal words in different languages

Zulnura KARIMOVA¹

Tashkent State Agrarian University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

modal words,
sociopragmatics,
speech communication,
communicative purpose,
speech act,
connotation,
presupposition.

ABSTRACT

Modal words in the process of speech communication express the speaker's attitude to the utterance and give it additional semantic shades. They serve as important pragmatic tools in the speech communication of different languages. This article focuses on the sociopragmatic features of modal words in languages of different systems, analyzing their usage, contextual variation, and cultural aspects.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp43-48>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turli tillarda xususiyatlari

modal so'zlarning sotsiopragmatik

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

modal so'zlar,
sotsiopragmatik,
nutqiy muloqot,
kommunikativ maqsad,
nutqiy akt,
tagma'no,
presuppositsiya.

Modal so'zlar nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchining fikriga nisbatan munosabat bildirib, qo'shimcha ma'nolar yuklash kabi vazifalarni bajaradi, Ular turli tillar nutqiy muloqotida muhim pragmatik vositalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada turli tizimli tillardagi modal so'zlarning sotsiopragmatik xususiyatlariga e'tibor qaratilib, ularning ishlatilishi, kontekstga qarab o'zgarishi va madaniy jihatlari tahlilga tortilgan.

¹ Associate Professor, Department of Languages, Tashkent State Agrarian University. E-mail: purelight16.09@gmail.com

Социопрагматические свойства модальных слов в разных языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

модальные слова,
социопрагматика,
речевая коммуникация,
коммуникативная цель,
речевой акт,
коннотация,
пресуппозиция.

Модальные слова в процессе речевой коммуникации выражают отношение говорящего к высказыванию и придают ему дополнительные смысловые оттенки. Они являются важными прагматическими средствами в речевой коммуникации различных языков. В данной статье уделяется внимание социопрагматическим характеристикам модальных слов в языках различных систем, анализируются их употребление, изменение в зависимости от контекста и культурные аспекты.

KIRISH

O'tgan asrning oxiridan boshlab dunyo tilshunosligiga til birliklarini antroposentrik aspektda tadqiq etish tamoyili kirib kelgach, o'zbek tilshunosligida ham bu yo'nalishda qator ishlar amalga oshirila boshlandi. Keyingi yillarda tilshunosligimizda til birliklarini sociolingvistik aspektda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratildi va bu sohada ko'plab yutuqlarga erishildi. Shunday bo'lishiga qaramay, turli tizimli tillarda aynan modal so'z-gaplarning sociopragmatik jihatdan qiyosiy o'rganish oldimizda turgan muammolardan biri sanaladi. Modal so'zlar turli tillarda so'zlovchining sub'ektiv munosabatini, ichki hissiyotlarini, biror voqelikka shubha, gumon, ehtimollik yoki ishonch darajasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu birliklar muloqot jarayonida ekspressiv hamda emosional holatni ifodalashi mumkin. Har bir tilda modal ifodalar turli ijtimoiy maqomdagi so'zlovchilar tomonidan turli maqsadlarda ishlatiladi. Ular suxbatdoshlar o'rtasida hurmat, nutqiy muloyimlik, yumshoqlikni ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, til insonning ichki dunyosi, ma'naviy saviyasi, madaniyati, odob-xulqi, oilaviy muhiti va tarbiyasi, qolaversa, ijtimoiy mavqeini ochib beruvchi vosita hisoblanadi. Nutq tabiatan o'zgaruvchan bo'lib, uning o'zgaruvchanligi bir qancha omillar ta'sirida yuzaga keladi. Bunday omillarga kommunikantning jinsi, yoshi, ijtimoiy holati, muloqot vaqti, vaziyat kabilarni kiritish mumkin [1]. Demak, yuqoridagi omillarni ochib berishda modal so'zlar ham beminnat xizmat qiladi. Macалан,

Eski qadrdonlarday so'rashdilar. Kelgan odam faqat: "Shukur, shukur" dedi, direktorimiz, "rahmat, rahmat", dedi. (Sh. Xolmirzaev. Saylanma.) Bu nutqiy aktdan ko'rinib turibdiki, kommunikantlarning biri maktab direktori bo'lsa, ikkinchisi islomiy ilmga ega inson. "Shukur, shukur" hamda "rahmat, rahmat" javob replikalaridan bir-biridan hol-ahvol so'rayotganlirining presuppozitsiyasini tushunishimiz mumkin.

Pragmatika va matn tilshunosligiga oid adabiyotlarda matn pragmatik mazmunini shakllantirishda modallik kategoriyasi muhim o'ringa ega ekanligi ta'kidlanadi. Chunki modallik harakatdagi tilga, ya'ni nutqqa xos kategoriya va shu sababli u kommunikativ jarayonning asosidir. Matn mazmuniy tuzilishida propozitsiya, referentsiya hodisalari informativ qismni, presuppozitsiya, tagma'no, allyuziya, modallik kabilar pragmatik qismni tashkil etishi ko'rsatib o'tiladi. [2]

M. Hakimovning qayd etishicha, nutqiy akt komponenti sifatida adresant-adresat, nutqiy vaziyat kabilar tushunilsa, tagma'ning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun, albatta, ana shu komponentlarning ishtiroki muhimdir. tuzilishida propozisiya, referensiya hodisalari informativ qismni, presuppozisiya, tagma'no, allyuziya, modallik kabilar pragmatik qismni tashkil etishi ko'rsatib o'tiladi [3].

Ifodaning yashirin bayoni, jumlaning tagma'nosi kommunikasiya ishtirokchilarining fikrlash faoliyati bilan va ularning olam haqidagi tasavvurlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining tashqi olam haqidagi tasavvuri kancha keng bo'lsa, u nutkiy vaziyat darajasini shu qadar tez fahmlaydi [3].

Tagma'noga xos xususiyatlardan biri nutq egasi maqsadining yashirin ifodalanishi va uning ro'yobga chiqish-chiqmasligi suhbatdoshlarga bog'liq emasligini bildirishdan iboratdir. Buni quyidagi matnda qo'llangan inshoolloh modal so'z-gapi orqali anglash mumkin:

– *Safarqul aka, biz sizdan domangir emasmiz. Bolalaringizning rohatini ko'ring. Gunohlarimizni Ollohning o'zi kechiradi. Mahshargohda yorug' yuz bilan ko'rishishni nasib etsin.*

– **Inshoolloh...** (T. Malik. "So'nggi o'q")

Ma'lumki, inshoolloh modal so'zi "*Xudo xohlasa, Xudoga xush kelsa*" [4] ma'nosini anglatadi. Aslida bu so'z "*Olloh istasin, ijobat aylasin*" ma'nosiga ega. Matnda qo'llangan Insholloh so'z-gapi esa so'zlovchining istak-xohishini aks ettirish bilan birga "*Ilohim amalga oshsin, bundan umidimiz katta*" tarzidagi tagma'noni ham ifodalaydi.

– **Aslida**, shartta o'lib ketsangam bo'laveradi! – *yana faylasufona o'yga cho'mdi Oktyabr.* (N. Abbosxon. "Sho'rqishloq"). Bu misolda tagma'no shundan iboratki, gap bitta odamga qarata aytilmagan, *aslida, yashashdan foyda yo'q, hayot qiyinlashib ketgan, shuning uchun yashashdan ko'ra o'lgan afzal. Aslida* nomustaqil modal so'z-gapi haqiqiy yoki asosiy holatni yoritish uchun xizmat qilgan va *to'g'ri yo'l ham shu* yashirin ma'nosini anglatgan.

Actually, yoki *In fact*, *Ha самом деле* yoki *Вообще-то*, *En fait* ёки *À vrai dire* modal so'zlari gapga tagma'no qo'shib, gapdagi asosiy fikrni to'g'rilash yoki aniqlashtirishga xizmat qiladi:

Ingliz tilida: *Yes, I knew him well; in fact, he was an old suitor of mine.* (A.Doyle. "The Return of Sherlock Holmes")

Rus tilida: *He девочка же она, в самом деле.* (М. Шолохов. "Тихий Дон") Jumladagi *в самом деле* modali kontekstdagi fikrning haqiqatdan shunday ekanligiga urg'u beradi va uning ishonchli ekanligiga xizmat qiladi. Shuningdek, o'sha ayol yosh qiz emasligini *в самом деле* modali bilan kuchaytirib, fikrni to'g'ri ekanligini ta'kidlab kelishi, unda tajriba kattaligi, har qanday masalaga jiddiy qaraydigan, puxta fikrlaydigan shaxs ekanligi tagma'nosini ifodalaydi.

Presuppozisiya nutqda yashirin ifodalangan axborot ko'rinishlaridan biri bo'lib, modal so'z-gaplar orqali ham ifodalanadi. Tilshunoslikda presuppozisiya haqida turlicha talqinlar mavjud. Jumladan, N.D. Arutyunova presuppozisiyani "so'zlovchilarning umumiy bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi" [5] deb baholaydi. V.Gak bu lingvistik hodisani "u yoki bu darajada eksplisit bo'lmagan holatda qatnashuvchi gapning oddiy ma'no komponenti" [6] sifatida, Ye.V. Paducheva esa "oldindan ma'lum bilimlar jami" [7] tarzida tavsiflaydi.

M. Umurzaqova tadqiqotida A. Nurmonovning presuppozisiya turlari haqidagi quyidagi fikrlarini keltiradi: "Presuppozisiya logik va semantik tushunchalar bo'lib, logika va sintaktikaning o'rganish ob'ektidir. Ko'pchilik adabiyotlarda presuppozisiya bilishning umumiy fondi sifatida talqin qilinadi. Lekin tilshunoslikda logik presuppozisiya bilan

lingvistik presuppozitsiyani aralashtirish hollari uchraydi. Biz faqat ma'lum tashqi signallar (grammatik ko'rsatkichlar) orqali anglashilgan presuppozitsiyani lingvistik presuppozitsiya hisoblash tarafdorimiz" [8].

Ta'riflardan shuni xulosa qilish mumkinki, presuppozitsiya til egalarining voqelik haqidagi umumiy bilimlari, til ko'nikmalariga asoslanuvchi, gapda presuppozitsiyani hosil qiluvchi tashqi signallariga ega bo'lgan lisoniy hodisadir. G. Yul bu haqda quyidagi xulosani bayon qilgan: "Agar [2a] dagi gap r propozitsiyani va [2b] dagi gap q propozitsiyani o'z ichiga olsa, >> belgisi presuppozitsiyani anglatadi desak, uning bog'liqligini [2c] da aks ettirish mumkin:

[2] a. Mary's dog is cute. (= p)

b. Mary has a dog. (= q)

c. $p \gg q$. [9]

Buni o'zbek tilida quyidagicha talqin qilish mumkin:

a) Lolaning akasi keldi. (= p)

b) Lolaning akasi bor. (= q)

c) $p \gg q$

Ko'rinib turibdiki, tinglovchi avvaldan Lolaning akasi borligi haqidagi ma'lumotga ega, Lolaning akasi kelishi kerak edi, u keldi. Agar axborot inkor shaklni olsa ham, presuppozitsiya holati o'z o'rnini saqlab qoladi. Masalan: *Lolaning akasi kelmadi*.

Har ikki holatda ham Lolaning akasi borligi tinglovchi uchun oldindan ayon.

Har ikki holatda ham Lolaning akasi borligi tinglovchi uchun oldindan ayon [10] L.S. Mel'nikova ham Frege ma'noni va denotatni belgining muvofiq tasviridan farqlashni taklif qilganligini e'tirof etadi va uning quyidagi fikrlarini keltiradi: "Agar belgining denotati – bu biz his qilishda qabul qiladigan narsa bo'lsa, unda bu narsa haqidagi tasavvurim menda ushbu narsani his qilish asosida shakllangan ichki obraz, shuningdek, bu narsa bilan bog'liq bo'lgan jismoniy va aqliy faoliyatim natijasida paydo bo'lgan obrazdir." [11]

Xo'sh, modal so'z-gaplar orqali presuppozitsiyaning ifodalanishi qanday yuz beradi? Quyidagi dialogik nutqni tahlil qilamiz:

– Domlangiz salomatmi?

– Shukur. (A. Qodiriy. "Mehrobdan chayon")

Berilgan dialogik nutqda qo'llangan Shukur so'z-gapi orqali "*Domlamning sog'liqlari ancha yaxshi*" presuppozitsiyasini anglash mumkin. Aslida jumla "*Ollohga (Yaratganga) shukur, domlamning sog'liqlari ancha yaxshi*" tarzida bo'lib, tejash tamoyili asosida keyingi komponent tushib qoldirilib, uning mazmunini aks ettirish Shukur modal so'z-gapi zimmasiga yuklangan. Natijada ushbu so'z-gap yashirin axborot, ya'ni presuppozitsiya signaliga aylangan. Bu o'rinda Shukur so'z-gapi ham tejash tamoyiliga uchragan. Har bir tilda bu iboraga o'xshash ifodalar mavjud, ammo ularning ishlatilish darajasi va shakli farq qilishi mumkin.

Shukur so'zining muqobillari Thank God, Слава богу, Grâce à Dieu bo'lib, nutqda javob replikasi sifatida ishlatilmaydi, ishlatilsa ham kam holatlarda ishlatilishi mumkin.

Ing.t.: – How is your mother doing? (Onangiz qanday?)

– Thank God, she is doing well. (Xudoga shukur, u yaxshi.)

Rus t.: – Как прошёл твой день? (Kuning qanday o'tdi?)

– Слава богу, всё прошло хорошо. (Xudoga shukur, hammasi yaxshi o'tdi)

Fran.t.: – Comment vas-tu aujourd'hui? (Bugun o'zingizni qanday his qilyapsiz?)

– *Grâce à Dieu, je vais bien.* (Xudoga shukur, yaxshi)

Dieu merci, les pompiers sont venus – *Xudoga shukur, o't o'chiruvchilar yetib kelishdi.*
(M. Dupuy. Le château des secrets)

Misollardan ko'rinib turganidek, holatini ifodalovchi yaxshi so'zi birga qo'llanilgan. Shuning uchun bunday holatlarda presuppozisiya ifodalangan deb ayta olmaymiz. Biroq, rus, ingliz va fransuz tillarida bunday javob replikalari sifatida kundalik nutqiy muloqotda ko'proq *"she is doing well, thank you"* yoki *"she is fine, thank you"*, *"Благодарю, всё хорошо"*, *"Je vais bien, merci"* yoki *"Ça va, merci"* kabi to'liq javoblar ishlatiladi.

Yuqorida berilgan *Shukur, Xudoga shukr, Allohga shukr, Yaratganga shukr, Alhamdulillah* kabi iboralar o'zbek tilida juda keng tarqalgan va kundalik hayotda turli vaziyatlarda, jumladan, kimningdir ahvolini so'raganda javob replikasi sifatida erkaklarning ham ayollarning ham nutqida keng ishlatiladi. Bu iboralar insonning o'zi yoki boshqalar uchun shukronalik va qoniqishni bildirish uchun qo'llaniladi. Yosh jihatdan esa, yoshlarning nutqiga qaraganda, o'rta yosh kommunikantlarning nutqida, ularning yoshiga qaraganda esa, yoshi ulug' insonlarning nutqida ko'proq uchraydi.

– *Sulton!?* – *orziqib chaqirdi ukasini Obida.* – *Ko'zi ko'ryaptimi?! Shuni ayt!*

– *Umidjon soppa-sog' ekan, mem! U ko'ryapti!* – *tantanali qichqirdi Sulton.*

– ***Allohga shukur!*** – *xitob qildi Olim qah-qah urib kulib.* – *Obidaxon, eshitdingizmi?!*

– ***Alhamdulillah!*** – *to'lqinlanib jilmaydi Obida.* – *Noumid qo'ymading Allohim!*

Ko'rinib turibdiki, aynan bir iborada presuppozisiyaning ifodalanishi turli tizimli tillarda farq qiladi: o'zbek tilida modal so'z-gaplar presuppozisiya ifodalashda boshqa tillarga nisbatan faolroq bo'ladi. Ushbu parchadagi *Allohga shukur! hamda Alhamdulillah!* modal so'zlari quyidagi presuppozisiyalarni anglatadi: 1. Tug'ilgan chaqaloq ota-onasining ko'zlari ojiz. 2. Ular chaqaloqning ham ko'zi ojiz tug'iladi degan xadikda bo'lishgan. 3. Ularni hadikka solib turgan ko'ngilsiz ish bo'lmadi. 4. Ular judayam hursand va bu holatni Allohdan deb biladi. Shuning uchun ota-ona *Allohga shukur! hamda Alhamdulillah!* iborolari orqali o'zlarining baxtiyorligini ifoda etishayotganini aytishimiz mumkin.

XULOSA

Demak, yuqorida keltirilgan fikr va misollardan shuni anglashimiz mumkinki, turli tillarda modal birliklar muloqot jarayonida kommunikantlarning xatti-harakatlari va o'zaro munosabatlarini aks ettirib, modallikni bildirish bilan birga, tagma'no va presuppozitsiyani ham ifodalashga xizmat qiladi. Lekin ba'zi modallar so'zlarning tagma'no hamda presuppozitsiya ifodalashi boshqa tillarga qaraganda o'zbek tilida kuchliroq ekanligi kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2000. – Б.19.

2. Xamidova S.N. Modal tuzilish uzvlarining kognitiv tadqiqi. Filol. fan. fals. doktori (PhD) diss. avtoreferati. Namangan – 2024. -24 v.

3. Ҳакимов М. Кўрсатилган манба. – Б.97.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 2-ж., – Б.221.

5. Арутюнова Н.Д. Понятие пресуппозиции в лингвистике // Известие АН СССР. Серия лит. и яз. – 1973. Т. 32. Вып. 1. – С. 85.

6. Падучева Е. В. Понятие презумпции в лингвистической семантике // <http://codenlp.ruwp-content/uploads/201509/presumption-77.pdf>. – С. 3.
7. Гак В. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. – М., 1981. – С.14.
8. Умурзакова М. Э. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: филол.фан.фалс. доктори (PhD) дисс. Тошкент – 2019. Б.115.
9. George Yule. Pragmatics. – Oxford University press, 1996. – P. 26.
10. Фреге Г. Смысл и денотат // Семиотика и информатика. М., 1977. № 8. С. 181–210.
11. Мельникова Л.С. К вопросу о семантических пресуппозициях побудительных речевых актов (на итальянском языковом материале) Веснік БДУ. Сер. 4. 2014. № 1. – С. 60-64.